

MA’RUZA MASHG‘ULOTLARIDA “FLIPPED CLASSROOM” MODELIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Isakulova Nilufar Janikulovna

ped.fan.dok., prof. O‘zDJTU

isaqulova@yandex.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Flipped classroom” modelidan ma’ruza mashg‘ulotlarida foydalanish yo‘llari tahlil etilgan. O‘qituvchilarning “teskari sinf” modeliga murojaat qilishining bir qancha sabablari, Flipped classroom modelining turlari o‘rganilgan. “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarida “Flipped classroom” modelidan foydalanilgan tajribalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: teskari sinf, o‘qitish prinsipi, standart teskari sinf, ilg‘or teskari sinf, munozaraga yo‘naltirilgan teskari sinf, ko‘rgazmaga yo‘naltirilgan teskari sinf, kombinatsiyalashgan teskari sinf, virtual teskari sinf

An’anaviy ta’lim muayyan qolipga tushirilgan jarayon sifatida amaliyotda e’tiborga olingan. Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy bo‘lgan aqliy rivojlanish yo‘li belgilanib, ta’limga oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yiladi.

An’anaviy ta’lim berishni X.X.Boyqo‘ziyev, N.A.Ismoilovalar quyidagicha tahlil qilishgan: ta’lim oluvchiga yondashish bo‘yicha nazoratchi, nasihatgo‘y, egallab bo‘lingan usul bo‘yicha qayta tiklash, ta’lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat’iy tashkil etilgan bo‘ysunish asosidagi (aforitar) ta’lim; ta’lim oluvchining imkoniyatlari, ularning o‘zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo‘naltirilgan ta’lim; o‘rganish, eslab qolish vazifasi, dars berish esa—asosiy faoliyat; ta’lim paradigmasi; ta’lim beruvchi–kitob–ta’lim oluvchidan iborat [2].

Kompetensiyaviy ta’lim amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, an’anaviy ta’limdan muayyan xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Bu farqlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. An’anaviy ta’limda o‘quvchi obyekt, kompetensiyaviy ta’limda esa subyekt.
2. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy bilim beruvchi, kompetensiyaviy ta’limda moderator, fasilitator.

3. An’anaviy ta’limda o’qituvchining yetakchiligiga asoslangan metodlar, kompetensiyaviy ta’limda esa interaktiv metodlar.

4. An’anaviy ta’limda ma’ruza mashg’ulotlari verbal usulda, kompetensiyaviy ta’limda interaktiv usulda amalga oshiriladi [3].

Amaliyotda odatda ma’ruzalar an’anaviy yondashuvga asoslanganligi sababli talabalar davomat uchun ishtirok etishini guvohi bo’lamiz. Shu sababli o’qitish prinsipi sifatida flipped classroom elementlaridan foydalanish yuzasidan tadqiqot olib borish imkonini berdi.

Teskari sinf (ingl. flipped classroom) – bu o’qitish prinsipi bo’lib, unga ko’ra talabalar tomonidan yangi materialning asosiy assimilyatsiyasi uyda amalga oshiriladi, auditoriyada vazifalar, mashqlar, laboratoriya va amaliy tadqiqotlar, o’qituvchining individual maslahatlari uchun ajratiladi [1]. Ushbu tamoyil 2007 yilda Kolorado shtatidagi (AQSh) Vudland maktabida ikkita fan o’qituvchisi – Jonatan Bergman va Aaron Samsu tomonidan taklif qilingan. Ular talabalar uyda tomosha qilishlari kerak bo’lgan ma’ruza materiallari bilan qisqa video podkastlarni yaratishni boshladilar. Darslar laboratoriya ishlariga, shuningdek, talabalarining savollariga javob berishga bag’ishlangan. Ta’lim 3.0 konsepsiyasining bir qismi sifatida olingan.

Teskari sinf (ingl. flipped classroom) – bu yangi materiallar bilan tanishish uyda bo’lib o’tadigan, sinfda asosiy vaqt amaliy mashg’ulotlar va mavzuning murakkab jihatlarini muhokama qilishga bag’ishlangan innovatsion o’quv konsepsiyasi hisoblanadi [4]. Flipped classroom modelining turlari amaliyotda foydalanib kelmoqda (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Flipped classroom modelining turlari

№	Flipped classroom modelining turlari	Flipped classroom modeli turlarining mazmuni
1.	Standart teskari sinf	Uy vazifasi sifatida talabalar videolarni tomosha qilishadi, o’qituvchining podkastlarini tinglashadi yoki darslikning paragraflarini o’qiydilar. Dars davomida o’qituvchi talabalarning yangi mavzu bo’yicha savollariga javob beradi, materialni qanchalik tushunganliklarini tekshiradi, tajribalar o’tkazadi va amaliy mashqlar beradi
2.	Ilg’or teskari sinf	Talabalar o’zlari internetda yangi mavzu bo’yicha material topadilar, uni bir-birlari bilan bo’lishadilar va darsda nutq tayyorlaydilar, keyin ularni guruhlarda muhokama qiladilar
3.	Munozaraga yo’naltirilgan teskari	Materialni mustaqil o’rganib chiqqandan so’ng, talabalar uni auditoriyada muhokama qilishadi va qo’shma loyiha faoliyati

	sinf	bilan shug'ullanishadi. Ushbu format gumanitar fanlar uchun javob beradi
4.	Ko'rgazmaga yo'naltirilgan teskari sinf	O'qituvchi ilmiy tajriba yoki eksperimentning namoyishini videoga oladi, talabalar yozishni o'rganadilar va tajribani mustaqil ravishda takrorlaydilar. Masalan, “Kimyo”, “Biologiya” yoki “Fizika” darslarida
5.	Kombinatsiyalashgan teskari sinf	Mavzuni o'rganish nazariyadan emas, balki amaliyotdan boshlanadi. Kichik guruhlarda (darsdan tashqari) talabalar muammo yoki misolni hal qilish yo'llarini izlaydilar, so'ngra auditoriyada o'qituvchi bilan o'z g'oyalarini muhokama qiladilar, so'ngra uyda ushbu mavzu bo'yicha taqdimotni o'rganadilar
6.	Virtual teskari sinf	Ta'limning ushbu shakli onlayn ta'limni boshqarish tizimlari yoki LMS (Learning Management System) tufayli mumkin bo'ldi. Virtual teskari sinf formati masofaviy ta'lim uchun mos keladi, o'qituvchi bilan yuzma-yuz uchrashuvlarni butunlay yo'q qiladi: nafaqat taqdimot, balki materialni muhokama qilish, shuningdek amaliyot va nazorat masofadan turib amalga oshiriladi, o'qituvchiga tekshirish uchun yuboriladi

Ma'ruza mashg'ulotlarida an'anaviy shaklda olib borilganda quyidagi muammolar aniqlandi: talabalarning boshqa fanlar bo'yicha uyga vazifalarni bajarishi; mobil aloqadan foydalanishi; turli o'yinlarni o'ynashi; ozroq mizg'ib olishi va h.

Yuqorida qayd etilgan muammolar oldini olishda o'qituvchilarning “teskari sinf” modeliga murojaat qilishining bir qancha sabablari o'rganildi. Masalan:

shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zarurati. Barcha talabalar materialni har xil tezlikda o'zlashtiradilar va ma'ruza davomida o'qituvchi har doim ham orqada qolgan talabalarga mavzuning barcha jihatlarini batafsil tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Uyda o'qish paytida har kim taqdimotni o'z tezligida ko'rishi, matnning eng murakkab paragraflarini qayta o'qishi, videoni takrorlashga qo'yishi yoki aksincha, allaqachon tanish bo'lgan qismlarni o'tkazib yuborishi mumkin;

dasturlarni o'zlashtirish uchun o'quv vaqtining etishmasligi. O'qituvchilar darsning ko'p qismini mavzuni tushuntirishga sarflashlari kerak va yangi materialni ishlab chiqish uchun bir necha daqiqa vaqt ketadi. Talabalar tushuntirish uchun o'qituvchiga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum, shuning uchun olingan bilimlar faqat qisman o'rganiladi;

talabalarda qiziqishning yetishmasligi. Aksariyat ta’lim oluvchilarini dars davomida diqqatni jalb qilish qiyin [4].

2024-2025 o`quv yilida O`zDJTU Ingliz tili – 1 fakulteti “Xorijiy til va adabiyoti” ta’lim yo`nalishining 2-bosqichida “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarida “Flipped classroom” modeli loyihalashtirildi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarida “Flipped classroom” modelini loyihalashtirish yo`llari

Talabani uyda ma’ruza bilan ishlash yo`llari	O`qituvchining ma’ruzani taqdim etish yo`llari	Auditoriyada ma’ruzani o`rganish yo`llari
Mavzuning asosiy muammosini aniqlash	Grafik organayzerlar	Uyga vazifani tekshirish
Kalit so`zlar va kategoriya(tushuncha, termin, atama)larni yozish	Jadvallar	Interfaol topshiriqlarni bajarish
Tushunmagan jumalarni yozish	Sxemalar	Test bajarish
	O`quv loyihalar	Esse yozish
		O`quv loyihalarni bajarish

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani mavzulari “Flipped classroom” modeli asosida ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani mavzulari

№	“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani mavzulari	Flipped classroom modelining turlari
1.	Inklyuziv ta’lim mazmuni va mohiyati	Standart teskari sinf
2.	Inklyuziv ta’limning uslubiy asoslari	Standart teskari sinf
3.	Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik va tashkiliy shartlari	Standart teskari sinf
4.	Ta’limning universal dizayni va individual ta’limiy reja	Standart teskari sinf
5.	Ta’lim tashkilotlarida alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim olishini qo`llab-quvvatlash texnologiyalari	Standart teskari sinf
6.	O`quvchilar va sinfdagi xilma-xillik	Kombinatsiyalashgan teskari sinf
7.	Ta’limiy tashkilotda inklyuziv muhitni loyihalash	Munozaraga yo'naltirilgan teskari sinf
8.	Individual ta’limiy marshrut: tuzish tamonlari, mutaxassisliklararo jamoa	Ko'rgazmaga yo'naltirilgan teskari sinf

9.	Gospital pedagogika – inklyuziyani ajralmas qismi sifatida	Kombinatsiyalashgan testkari sinf
10.	Horijiy mamlakatlarda gospital pedagogika an’analari va xususiyatlari	Munozaraga yo’naltirilgan testkari sinf
11.	Tibbiyot muassasalari statsionarlarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta’lim muhitini yaratish	Ko’rgazmaga yo’naltirilgan testkari sinf
12.	Tibbiyot shifoxonalarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini pedagogik qo’llab-quvvatlash	Munozaraga yo’naltirilgan testkari sinf

O’qituvchi ma’ruzani taqdim etishda talabalar bilan individual va guruhli ishlarini aniqlashtirish lozim. Shu sababli ma’ruza mashg’ulotlari 4 potok talabalari uchun “Savol-javob” usuli va “Test” metodi individuai shaklda, “Blits-so’rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Venna diagrammasi” metodlari kichik guruhlarda loyihalashtirildi (4-jadvalga qarang):


4-jadval.

Ma’ruzani taqdim etishda talabalar bilan individual va guruhli ishlari

Topshiriqlar Guruhlar	1-mavzu					
	Savol-javob (individual)	Test (individual)	Blits-so’rov (4 ta guruh)	Tushunchalar tahlili (4 ta guruh)	Kichik guruhlarda ishlash (4 ta guruh)	Venna diagrammasi (4 ta guruh)
XT1-2301-2306	2301	2302	2303	2304	2305	2306
XT1-2307-2312	2307	2308	2309	2310	2311	2312
XT1-2313-2318	2313	2314	2315	2316	2317	2318
XT1-2319-2324	2319	2320	2321	2322	2323	2324

Talabaning uyda ma’ruza bilan ishlashini nazorat qilish uchun ma’ruzaning kalit so’zlari va modulning kategoriya(termin, atama, tushuncha)lari bo’yicha so’rovnoma o’tkaziladi. “Inklyuziv ta’lim mazmuni va mohiyati” mavzusi bo’yicha so’rovnoma Google formatda (https://docs.google.com/forms/d/1pgl4yM5euTF2deeoUTsvvNEXIWAKYyN_Q9u8qLl_Mc/edit#responses) o’tkazildi. Ingliz tili – 1 fakultetining 335 nafar talabalari ishtirok etishdi (1-rasmga qarang):


Guruhingizni tanlang
335 ОТВЕТОВ



1-rasm. Ingliz tili – 1 fakultetining talabalari ishtiroki

Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz? degan savolga 333 nafar talabadan 80,2 %i maxsus ehtiyojga ega bolalarni umumiy o`rta va o`rta maxsus ta'lim tashkilotlarida o`qitish deb to`g`ri, 16,2 %i nogironlarni o`qitish va 3,6 %i maxsus maktablarda o`qitish deb noto`g`ri javob berishgan (2-rasmga qarang):

1. Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz?
333 ОТВЕТА




2-rasm. Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz? degan savol natijalari

So`rovnoma natijasida “Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz?” savoli orqali “Inklyuziv ta'lim”, “Kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik,

baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish nimani bildiradi?” savoli orqali “Nogironlik”, “Qanday nogironlik modeli nogironlikni faqat tibbiy nuqtai nazardan tushunadi?” savoli orqali “Tibbiy model”, “Qanday nogironlik modeli nogironlikni insonning biologik yoki psixologik holati bilan emas, balki jamiyatning nogironlarga nisbatan munosabatlari va tuzilmalari bilan bog‘liq deb tushunadi?” savoli orqali “ijtimoiy model”, “Qanday nogironlik modeli nogironlikni tibbiy, psixologik va ijtimoiy omillarni birlashtirgan holda tushunadi?” savoli orqali “biopsikososial model”, “Qanday nogironlik modeli ijtimoiy modelning rivojlangan shakli sifatida qaraladi?” savoli orqali “sosial model”, “Qanday nogironlik modeli nogironlikni jamiyatdagi barcha odamlarning teng huquqliligi asosida tushunadi?” savoli orqali “inklyuziv model”, “Qanday nogironlik modeli nogironlikni mehnat bozoridagi cheklovlar va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog‘laydi?” kabi savoli orqali “iqtisodiy model” kategoriyalari organilib, o‘xshash va farqli jihatlari tahlil etildi.

Auditoriyada ma’ruzani o‘rganish yo‘llari sifatida interfaol topshiriqlar, testlar, o‘quv loyihalarni bajarish olingan (3-rasmga qarang):



3-rasm. Auditoriyada ma’ruzani o‘rganish yo‘llari

Interfaol topshiriqlar “Blits-so‘rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Venna diagrammasi” metodlari asosida ishlab chiqildi va topshiriqlar hajmi aniqlandi (5-jadvalga qarang):

5-jadval.

Interfaol topshiriqlar hajmi

№	Mavzular	Savol-javob savollari soni	Test savollari soni	“Blits-so’rov” metodi savollar soni	“Tushunchalar tahlili” metodida tushunchalar soni	“Kichik guruhlarda ishlash” metodida	“Venna diagrammasi” metodida qiyoslangan tushunchalar soni
1.	1-mavzu	10	48	19	3	4	4
2.	2-mavzu	10	32	21	2	4	4
3.	3-mavzu	4	21	21	2	4	4
4.	4-mavzu	6	41	21	4	4	4
5.	5-mavzu	8	27	27	4	4	4
6.	6-mavzu	6	78	32	4	4	4
7.	7-mavzu	6	36	28	2	4	4
8.	8-mavzu	8	27	11	3	4	4
9.	9-mavzu	9	26	28	4	4	4
10.	10-mavzu	7	20	12	3	4	4
11.	11-mavzu	7	20	22	1	4	4
12.	12-mavzu	5	20	24	2	4	4

Shuningdek, 10-mavzu asosida 10 yoshli Ahad bolada 1-turi diabeti uchun ta’limiy marshrut, 6 yoshli Lina bolada o’sma kasalligi uchun ta’limiy marshrut, 8 yoshli Temur autizm spektri buzilishi uchun ta’lim, 2 yoshli Farida tug‘ma yurak nuqsoni uchun qanday ishlar olib borishi bo‘yicha o‘quv keyslari hamda 11-12-mavzular asosida axborot va amaliy o‘quv loyihalar ishlab chiqilgan (6-jadvalga qarang):

6-jadval.

O‘quv loyihalar

№	Mavzular	Axborotli loyihalar		Amaliy loyihalar	
			Natijasi		Natijasi
1.	11-mavzu	“Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining bolalar uylari	Klaster	“Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalaridagi muammolar	Hisobot tayyorlash
		Mehribonlik uylari, bolalar shaharchalari hamda davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim	Klaster	O‘zbekistonda 10 ta mehribonlik uyi, 4 ta bolalar shaharchasi va 2 ta	Hisobot tayyorlash

		muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etishga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari		bolalar uyi yopildi	
2.	12-mavzu	Sil kasalligi va uning shakllari	Klaster	Ruhiy asab kasalliklariga chalingan bolalar	Hisobot tayyorlash
		Tayanch-harakat tizimi kasalliklari va ularning asoratlari	Klaster	Tibbiyot muassasalari turlari	Hisobot tayyorlash

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarida o‘qitish prinsipi sifatida flipped classroomdan foydalanish yuzasidan quyidagi qiyinchiliklar talabalarda uchradi:

- talaba faol ishirokchi bo‘lishni xohlamadi;
- ma’ruza vaqtida boshqa fanlarning uyga vazifalari bajarilmay qolishi norozilik kuzatildi;
- mobil aloqadan foydalanishi cheklangan;
- guruh topshiriqlarini tinglashga majbur va h.

O‘qituvchilarda flipped classroomdan foydalanish yuzasidan quyidagi qiyinchiliklar uchradi:

- har bir ma’ruza uchun interfaol topshiriqlarni ishlab chiqish;
- guruhlarda topshiriqlarni bajarishda talabalar diqqatini tez-tez jalb etish;
- interfaol topshiriqlarni bajarish uchun elektron resurslar bilan ta’minlash;
- chartgptdan ma’lumotlar to‘g‘riligini aniqlash;
- “Savol-javob” usuli va “Test” metodini individuui shaklda, “Blits-so‘rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Venna diagrammasi”, o‘quv loyiha, o‘quv keysi metodlarini kichik guruhlarda loyihalashtirishni nazorot qilish.

Ma’ruza mashg‘ulotlarida “Flipped classroom” modelidan foydalanish dars mashg‘uloti ijodiy va intellektual jarayon bo‘lganligi sababli, uni muayyan yondashuv va qoliplarga solish, oldindan rejalashtirilgan vaziyatlarni to‘liq idora qilish, talabalarga nisbatan bir xil metodikada yondashish kabilarni oldini olishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Europass Teacher Academy| Flipped classroom; 2020 |url=<https://www.teacheracademy.eu/course/flipped-classroom/> Архивная копия от 20 марта 2020 на Wayback Machine. Access data: 16.04.2025.
2. Бойқўзиев Х.Х, & Исмилова Н.А. (2024). Анъанавий ва инновацион таълим технологияларининг концептуал асослари . образование наука и инновационные идеи в мире, 37(3), 72-75. Retrieved from <https://newjournal.org/01/article/view/11009>
3. Дусчанова Н.С. Замонавий педагогик ёндашувлар: қиёсий таҳлил // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. Cite-Factor: 0,89. 62305dea37295568556059.pdf
4. Елена Гайворонская. «Перевернутый класс»: кто и зачем переворачивает традиционное обучение? Электронный ресурс: «Перевернутый класс»: в чём суть метода и как применить технологию в обучении? Преимущества и недостатки формата | "Где мои дети" Блог. Дата обращения: 16.04.2025.